

**XOTIN-QIZLAR BANDLIGINING IQTSODIY-IJTIMOIY AHAMIYATI
VA TA'LIMDA AYOLLARNING ULUSHI**

Ibodullayeva Malohat Sirojiddin qizi

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti

Samarqand filiali tayanch doktoranti

ibodullayevamalohat0@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada ayollar bandligening iqtisodiyotga ta'siri, ayollar bandligening ijtimoiy ahamiyati haqida fikr va mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, ta'linda xotin-qizlarga qaratilayotgan e'tibor, xotin-qizlarning iqtisodiyotda bandligini taminlash bo'yicha hozirda uchrayotgan muammolar haqidagi qarashlar o'r ganilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim sohasida ayollar, ayollar bandligi, ijtimoiy tenglik, iqtisodiy rivojlanish.

Ayollar bandligening ahamiyati:

Iqtisodiy rivojlanish: ayollar ish kuchi sifatida faol bo'lishi iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. Bu, ayniqsa, xizmat ko'rsatish, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi sohalarda sezilarli bo'lishi mumkin.

Uy xo'jaligi daromadlari: ayollarning ish bilan band bo'lishi oilalarning moliyaviy barqarorligini oshiradi, farzandlarining ta'lim va sog'lig'iga ko'proq mablag' ajratish imkonini beradi.

Jamiyatdagi tenglik: ayollarning iqtisodiy faoliyati ularning jamiyatda o'z o'rnini topishi va ijtimoiy tenglikni ta'minlashga yordam beradi.

Ayollar bandligiga to'sqinlik qiluvchi omillar:

Ijtimoiy va madaniy stereotiplar: ko'plab jamiyatlarda ayollar faqat uy ishlariga mas'ul deb qaraladi. Bunday madaniy qarashlar ularning bandlik imkoniyatlarini cheklab qo'yishi mumkin.

- Ta'lim imkoniyatlari: ta'lim olish imkoniyati cheklangan joylarda ayollar


Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

malaka va kasbiy o‘qishga kirish imkonidan mahrum bo‘lishi mumkin, bu esa ularning ish topish imkoniyatlarini qisqartiradi.

- Ish va oilaviy majburiyatlar muvozanati: ko‘plab ayollar uy ishlari va farzand tarbiyasi bilan band bo‘lib, ishlash imkoniyatiga ega bo‘lmaydilar.
- Xavfsizlik va transport: ayrim hududlarda ayollarning ish joyiga xavfsiz va qulay yetib borishi ham muammo bo‘lishi mumkin.

Ayollarning iqtisodiy faolligi nafaqat ularning o‘zlari va oilalari uchun, balki butun jamiyat uchun ijobjiy natijalar beradi. Ayollar ish bilan ta’milanganda:

- Iqtisodiy barqarorlik oshadi: ayollar mehnat bozoriga qo‘shilishi mamlakat iqtisodiyotini kuchaytiradi.
- Uy xo‘jaliklari daromadi oshadi: ayollar ishlaganida oilalar daromad manbalarini kengaytirishi va farzandlari ta’limiga ko‘proq mablag‘ ajratishi mumkin.
- Ijtimoiy tenglik ta’milanadi: ayollarning iqtisodiy faolligi gender tenglikka erishishning muhim qismidir.
- Ayollar o‘z huquqlarini himoya qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi: ish bilan band ayollar moliyaviy mustaqillikka erishib, o‘z huquqlarini yanada samarali himoya qilish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.



1-rasm. Professor-o‘qituvchilari tarkibida xotin-qizlarning ulushi viloyatlar kesimida¹

¹ Stat.uz

www.tadqiqotlar.uz

14-to‘plam 3-son dekabr 2024

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Ta'lim va sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya ko'rsatish sohalarida faoliyat yuritadigan jami xodimlarning 70%dan ortig'i ayollar hisoblanadi. 2022-yilda Respublika bo'yab maktabdan keyingi ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari tarkibida ayollar ulushi 46,5 foizni tashkil qilgan.

Yurtimizda xotin-qizlarga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Ular uchun juda kop yengilliklar qilinmoqda. Bulardan asosiy ko`zlangan maqsad esa ta`lim tizimida ayollarimizning rolini oshirish, ularni ish bilan band qilish, aqliy salohiyatini oshirish va dunyo miqyosida ayollarimizning yutuqlarini ko`rish. Ushbu maqsadda hozirda ko`plab ishlar amalga oshirilmoqda. Bular:
2 mingta grant: Xotin-qizlar uchun o'qishga kirishdagi asosiy imkoniyatlardan biri — ehtiyojmand oilalardagi xotin-qizlarga ajratiluvchi umumiy kvotaning 4 foizi miqdoridagi (2 mingta o'rinni) grant hisoblanadi. Unga talabgorlar ham tavsiyanomani Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasidan oladi.

5 yillik tajribaga ega xodimlar uchun 500 ta kvota: Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan 5 yillik stajga ega, oliy ma'lumotli bo'lmagan xotin-qizlarga tavsiyanomalar beriladi. Biroq tavsiyanomaning o'zi o'qishga kirishni kafolatlamaydi. Uni olgan xotin-qizlar ham hamma abituriyentlar kabi imtihon topshiradi, faqat ularning to'plagan ballari alohida kvota doirasida hisoblanadi. Eng yuqori ball to'plagan 500 abituriyent esa talabalikka to'lov-kontrakt asosida qabul qilinadi.

"Hamshira" ko'rik-tanlovi: bu tanlov g'oliblari davlat komissiyasi qarori bilan tegishli OTMlar mos yo'nalishiga tanlovdan tashqari kirish imtihonisiz qo'shimcha grant asosida qabul qilinadi.

Tekin o'qish imkoni: magistratura bosqichiga kirgan barcha xotin-qizlarning to'lov-kontrakt puli davlat tomonidan qoplab beriladi. Buning uchun ular belgilangan sanadan kechiktirmay rektor nomiga ariza yozishlarining o'zi yetarli.

Xulosa qilib aytganda, xizmat ko'rsatish sohasida ayollarning ulushi muhim rol o'ynaydi. Bu sohalarda xotin-qizlar nafaqat ishchi kuchi sifatida, balki liderlik va innovatsiyalarni amalga oshirishda ham faol ishtirok etadilar. Ularning ishtiroki

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

sohalar o'rtasidagi tenglikni ta'minlashga, iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga va jamiyatni barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Anarbayeva F. U. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliv ta'limni raqamlashtirishning imkoniyatlari "Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari" ilmiy elektron jurnalı. 2023. № 2 (10). – B. 84.
2. Ayupov R.X. Raqamli iqtisodiyot: muammolar va yechimlar. "Halqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnalı. 2-son, Aprel, 2018. Interfinance.uz – saytida. 8 bet.

Foydalanilgan saytlar

- 1.Stat.uz;
- 2.E-gov.uz ;
- 3.Worldbank.org;
- 4.Lex.uz ;
5. Asiapacific.unwomen.org;
6. El.tfi.uz